



MOBIL MULOQOT TUSHUNCHASIGA SINXRON VA DIAKRONIK YONDASHUVLAR, TELEFONIYA DISKURSI IYERARXIYASI

Muallif: Urinboyeva Saodatxon Maxammadjon qizi ¹

Affiliyatsiya: Andijon davlat univerisiteti tayanch doktoranti ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15175290>

ANNOTATSIYA

Telefon suhbatlari diskursining sinxronik va diakronik tahlili, shuningdek, telefon suhbatlari diskursining ierarxik tuzilishi haqida olib borilgan tadqiqotdir. Ushbu maqolada telefon orqali suhbatlarning strukturasini va ularning o'zgarishini o'rganish uchun sinxronik va diakronik yondashuvlar qo'llaniladi. Sinxronik tahlil suhbatning mavjud holatini va uning qismlarini (so'zlashuvchilar, so'zlar, ifodalar va h.k.) o'rganishga qaratilgan bo'lsa, diakronik tahlil suhbatning vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishini va uning tarixiy rivojlanishini ko'rsatadi. Telefon suhbatlari diskursining ierarxik tuzilishi, o'z navbatida, suhbatda ishtirok etadigan tomonlarning rollarini va ularning o'zaro munosabatlarini aniqlashga yordam beradi. Tadqiqotda telefon suhbatlari kommunikatsiyasining turli qatlamlari va uning ichki tuzilishi haqida chuqur tahlil olib boriladi.

Kalit so'zlar: Telefon suhbatlari, Diskurs, Sinxronik tahlil, Diakronik tahlil, Iyerarxik tuzilish, Suhbatning strukturasini tahlil qilish, So'zlashuvchilar, Komunikatsiya.

Telefoniya diskursi tushunchasiga yaqinroq yondashishdan oldin tilshunoslikda diskurs tushunchasining mohiyatiga e'tibor berib o'tish maqsaddan holi bo'lmaydi. Diskurs tushunchasi kommunikatsion tadqiqot tarixida asosiy vosita xisoblanadi. Diskursga nisbatan ilk yondashuvlar G'arbda Yunonistonga Sharqda Xitoyga borib taqaladi. Dastlab diskurs tushunchasi falsafa, ritorika hamda mantiq kabi ilk nazariy fanlarning asosiy tadqiqot obyekti bo'lib kelgan bo'lsa, 20-asrga kelib u tilshunoslik, psixologiya hamda sotsiologiya fanlarining tarmog'i sifatida tadqiq qilina boshladi. [1:] Diskurs atamasi tilshunoslikda rasman ilk bora o'tgan asrning 50-yillarida amerikalik tilshunos olim Z. Xarris tomonidan ishlatilgan. Olim 1952-yilda O'zining "Diskurs tahlili" nomli risolasida ushbu atamani qo'llagan. Z. Xarris tilda sintaksisdan ham bir daraja yuqori o'rinda turuvchi tizim mavjudligini hamda matn ham ana shu tizimning tarkibiga kiruvchi birlik ekanligi haqidagi qarashlarini ilgari surgan. Diskurs tahlil tilning strukturaviy sifatlarini gapdan ko'ra kengroq mukammalroq elementlarda ko'rib chiqadi. [14:21]

Ushbu atama Lotin tilidagi *discursus* so'zidan olingan bo'lib, turli yo'llar bilan borish, ifodalash kabi ma'nolarni anglatadi. [1:] Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, diskurs atamasi turli tematik lug'atlarga oid keng tushuncha bo'lib, uning mazmuni har bir fan doirasida turlicha shaklda ifodalanadi. Masalan, diskurs tushunchasiga *The American Heritage Dictionary of English Language* kitobida verbal muloqot: suhbat, dialog; nutq

yoki yozma matnning rasmiy shakli, tilshunoslikda esa lingvistlar tomonidan lisoniy jarayonlarni (bitta gapdan ko'p bo'lgan) tadqiq qilishda foydalaniladigan tahlil metodi deya ta'rif berilgan. [3:]

Badiiy izohli lug'atda diskursga quyidagicha ta'rif berilgan: har qanday yozma yoki og'zaki nutqning faollashuvidir yoki nutqning rasmiy bayon etilishidir. Tilshunoslikda diskurs atamasi bir gapdan ko'p bo'lgan lisoniy yaxlit birlikka nisbatan foydalanilsa diskurs analiz metodi yozma yoki og'zaki nutq tarkibidagi gaplarning o'zaro izchilligi va boshqa turli aloqalarii tahlil qilish metodidir. Diskursning alohida xususiyatlaridan biri bu uning xosil bo'lish jarayonida hattoki ixtisoslashgan bo'lsada kimga qaratilganligidan kelib chiqqan holda o'zaro bog'langan yaxlit birlikka aylanishidir. [3:]

Diskurs tamasi Arxeologik lug'atda ong osti bilimlari bilan ishlab chiqilgan va qabul qiluvchiga tushunarli shaklga keltirilgan kontekstdir. U shunchaki so'zlar orqali yoki visual tarzda (chop etilgan ma'lumot, ma'ruza, muzey eksponatlar peshtaxtasi, televideniya daturlai va blar) yordamida ifodalangan kontentgina emas, balki o'z ichiga kontseptiv, ijtimoiy, tarixiy sathlarni ham jamlagan birlikdir. Diskurs nafaqat insonlar, balki binolar hududlar joylar kabi moddiy va qoidalar, qadriyatlar hoxish-istaklar, konsepsiyalar kabi madaniy komponentlarni mujassamlashtirgan bilimlar yig'indisidir. [3:]

Diskurs atamasiga nisbatan alohida ta'rif mazkur lug'atning falsafaga oid bobida ham berib o'tilgan. Diskurs bu – tilning davomli suratda o'zini suhbat, muhokama, xisobot yoki oddiy nutq kabi shakllarda namoyon qilishidir. Diskurs tahlil esa ma'lum bir mavzuga qaratilgan diskursni ijtimoiy siyosiy jihatlariga e'tibor qaratgan holda, lisoniy hamda sotsiologik jihatdan tavsivlab berishga qaratilgan jarayondir. [4:]

Geografik lug'atda diskurs terminiga nisbatan aniq tizimli tayyorlangan, qayta ishlangan, namoyish qilingan va qabul qiluvchiga yetkazilgan g'oya, konsept yoki fikrning maxsus jamlanmasidir deya yondoshilgan. [5:] Bundan shuni anglash mumkinki, diskurs faqatgina tilshunoslik fanining emas balki boshqa ko'plab ijtimoiy fanlarning ham tadqiqot obyekti xisoblanadi. Shu sababdan ham diskurs tushunchasiga turli tematik izohli lug'atlarda uning vazifaviy xususiyatidan kelib chiqib turlicha yondoshilgan.

The International Encyclopedia of Social Science kitobida diskursga quyidagicha ta'rif berilgan: Gap bu - so'zlarning sistematik ketma-ketligi bo'lsa diskurs bu - gaplarning sistematik tartibda joylashuvidir. Diskurs turli sohalarni, jumladan xisobot, epos, reportaj yoki lirika hamda boshqa ko'plab tematik sohalarni o'z ichiga oladi. U turli komponentlarni: texnik, moliyaviy, etik- estetik, badiiy va boshqa ko'plab janrlarning elementlarini o'zida mujassamlashtiradi. Shuningdek, yozma yoki og'zaki, monologik yoki suhbat shakllarida bo'lishi mumkin. Bundan tashqari u turli uslublar, darak, so'roq, buyruq va aralash shakllardagi formatlarda bo'lishi mumkin. [10:]

Shotland tilshunosi, lug'atshunos olim zamonaviy ingliz tilining ko'zga ko'ringan tadqiqotchilaridan biri professor T. MakArturning fikricha diskurs bu:

- suhbat, dialog, ma'ruza, pand-nasihad, ilmiy tadqiqot ishi kabi lisoniy voqeliklarga nisbatan qo'llaniladigan umumiy rasmiy atama;
- ba'zida tildan foydalanishga nisbatan foydalaniladigan atama;

- lingvistikada bitta gapdan uzun bo'lgan yozma yoki og'zaki nutq birligi. Aynan shu birlik bilan shug'ullanuvchi tilshunoslik bo'limi diskurs tahlil deb nomlanadi. [7: 214-215]

O'tkan asrning 50- yillariga kelib tadqiqotchilar o'zlarining lingvistik izlanishlari davomida tilning asosiy birligi sifatida faqatgina gapdan foydalanish yetarli emasligini anglab yetkanlaridan so'ng diskurs tushunchasiga qiziqishlari ortib bordi. Bunday fikrlar albatta o'rinli edi, chunki nashr qilingan matnlar yoki og'zaki suhbatlarning tarkibiy qismi bir necha gapning ketma-ketligidan iborat bo'ladi. Lekin diskurs og'zaki yoki yozma gap singari kichik birlik emas. U o'zida kontekstuallik, izchillik, yaxlitlik, ritorika kabi xususiyatlarni mujassamlashtirgan gaplar yig'indisidan iborat lisoniy birlikdir. [5:156-157] Amerikalik tilshunos olim, filologiya fanlari nomzodi, Artur Gresser tilshunoslik sohasida diskurs tushunchasiga oid uchta yirik ilmiy nashrlari va 600ga yaqin maqolalarida 30 mingga yaqin tilshunoslarning fikrlarini iqtibos qilgan holda o'z fikrlarini bayon etgan. Professor diskursga nisbata quyidagi 7 yondashuvni tasniflab chiqqan:

1. Diskurs psixologiyasi;
2. Korpus tahlil;
3. Kompyuter diskursi;
4. Diskurs texnologiyalari;
5. Matn tahlil;
6. Aralash *qualitative* (suhbatlar asosida ma'lumot yig'ish metodi) *quantitative* (statistik metod) yondashuvlar;
7. Ijtimoiy madaniy asoslar. [5: 187]

Olimning ta'kidlashicha diskurs tushunchasi lingvistikaning asosiy tadqiqot obyektiga aylanishining asosiy sabablaridan biri bu uning sistematik tarkibiy qismi bilan bog'liqdir.

Diskursning bu kommunikatsion nutqning tarkibiy shakllarini bir-biridan farqlashga imkoniyat beradigan lisoniy voqelikdir. Diskurs tahlil nutq yoki matnni ekstralingvistik faktorlar (olam haqidagi taassurot, shaxsiy fikr, qadriyatlar tizimi va blar) aktuallashuviga ko'ra konstruktiv xususiyatlarini aniqlash imkoniyatini yaratib beruvchi tahlil jarayoni. Diskurs tuzilish jihatidan nafaqat voqealarning o'zi va xususiyatlarini o'z ichiga oladi balki ularning hosil bo'lishida ishtirok etgan yoki bu voqelikda ishtirok etmagan diskurs qatnashchilarining ham unga nisbatan munosabatlarini o'zida aks ettiradi. Shuning uchun ham tahlil jarayoni ko'p tarmoqli va murakkab lisoniy jarayon xisoblanadi. Tadqiqotchi diskurs tushunchasining als mohiyatini anglay olishi va o'z ilmiy faoliyatida to'g'ri yondashishi uchun uning lingvistik hamda ekstralingvistik faktorlarining o'zaro ta'sirini ko'rib chiqishi darkor. [13:8] Tilning voqelanishi faoliyat jarayoni ekanligi fanimizda Arastu davridan boshlab hozirgi kungacha hech bir tilshunos tomonidan inkor etilmaydi, lekin yaqin davrgacha, yuqorida aytib o'tganimizdek, tilshunoslikning barcha oqim va yo'nalishlari faoliyat mahsulini, hatto, dialektologik tavsiflarda ham tavsifu tahlil etish bilan band edilar. To'g'ri, psixologlar, psixolingvistlar nutqning paydo bo'lishi, uning yuzaga chiqish jarayonida o'zini emas nutqning paydo bo'lishi, lisoniy imkoniyatning nutq shaklida voqelanishini psixofiziologik jihatdan tadqiq etish bilan cheklandilar. Nutqni jarayon sifatida o'rganish

faqat muloqot – so'zlovchi va tinglovchi orasida o'zaro diskurs (fikir almashish), savolga yarasha javob berish – holatidagina tadqiq etish mumkin. Shu bois XX asrning oxirlarida tilshunoslikning yangi bir tarmog'i – diskursologiya nutqiy muloqotni tadqiq etuvchi fan sifatida shakllandi. Diskurs bajarayotgan kommunikativ vazifasi jihatdan tizimlashgan va muloqot vaziyatiga moslashgan nutqiy qurilmadir. Shakl va vazifa jihatidan muvofiqlashtiruv diskursni boshqa birliklardan farqlash imkonini beradi. [8: 57] Yuqoridagi fikrlardan shuni anglash mumkinki, diskurs tushunchasining mohiyatini yoritib berishda har bir tilshunos lim dastlab chuqur izlanishlar olib borishi alohida ahamiyatga ega. Diskurs tarkibiy jihatdan yuqorida aytib o'tilgan turli komponentlarga ega bo'lishi bilan birga lisoniy paradigm sifatida turli sotsial konseptlar bilan uzviy bog'liqlik kasb etadi. Quyida berilgan chizma diskursning boshqa konseptiv paradigmalar bilan aloqadorligini aks ettiradi. [7: 268]

Diskurs atamasi o'z ichiga keng ma'noga ega bo'lgan har qanday yozma matn yoki og'zaki nutq shaklidagi lisoniy birlikni qamrab oladi. U o'z o'rnida visual vositalar masalan yozma yoki nashr qilingan matn tarkibida mavjud bo'lgan chizma, bosma harflar yoki rasmlar, og'zaki nutqda esa yuz ifodasi hamda boshqa turli ma'no anglatuvchi vositalarni qamrab olishi bilan ham karakterlanadi. Diskurs tushunchasini matn sifatida umumlashtirib yubormaslik uchun uning asosiy komponentlari va semantik xususiyatlariga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Turli imo-ishoralar, yuz ifodalari, jestlar, intonatsiya va boshqa audio va vizual strukturalar kabi turli semantik vositalar diskursning tabiatiga xos bo'lgan komponentlardir, chunki bu kabi vositalar diskurs muallifining aynan nimaga nisbatan fikr bildirayotganini anglatadi. [11: 116] Diskurning mohiyatini anglashda asosiy jarayon bu mazmunning umumiy tabiatini anglash va murakkablikni soddalashtirishdir, masalan, ong osti bilimlar yig'indisidan kerakli mavzuga doirini tanlab olib, yangi berilayotgan axborot bilan taqqoslashdir. Boshqacha qilib aytganda, tildan foydalanuvchilarning berilgan ma'lumotning hammasini birma-bir tahlil qilib emas, balki eng kerakli joylarini ong ostida hosil bo'lgan modellar bilan solishtirishdir. [12: 46]

O'zbek tilshunosligida diskursning lisoniy jihatlarini ochib berishga qaratilgan ilmiy izlanishlar Sh. Safarov tomonidan olib borilgan. U matn va diskurs muammolari haqida quyidagilarni fikrlarni bayon qilgan: "Agarda matn ham, diskurs ham insonning lisoniy faoliyati natijasi o'laroq yuzaga kelsa, ularning faqat formal ko'rinishiga ko'ra og'zaki va yozma shakllariga ko'ra farqlash yetarli bo'lmaydi. Axir bularning ikkalasi ham natijali faoliyat mahsuli bo'lganidan keyin, erishilgan natija albatta moddiy ko'rinishga ega bo'lishi kerak." [9: 4]

E'tirof etish joizki, diskurs tushunchasining o'zi, murakkab lingvistik fenomen bo'lib, sistematik tahlillar asosida tadqiq qilinadigan lisoniy voqelik deb xisoblanadi. Uning turli shakllari ko'plab tilshunos olimlar tomonidan turli xususiyatlariga ko'ra tadqiq qilingan. Masalan, badiiy diskurs, siyosiy diskurs ekonomik diskurs, multfilm va kino diskursi va blar. Ammo, tilshunoslikda nisbatan yangi tarmoq bo'lgan telefoniya yo'nalishining bosh obyekti xisoblanadigan mobil muloqot (telefon kommunikatsiyasi) diskurs sifatida tahlilga tortilmagani joriy mavzuning aktualligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot ishini olib borishdan oldimizga qo'yilgan ustuvor maqsadlarimizdan biri ham aynan telefoniya diskursining semantik-strukturaviy hamda lingvokulturalogik jihatlarini ingliz va o'zbek tillari doirasida ochib berishdan

iboratdir. Bundan tashqari telefoniya diskursini kommunikativ pragmatik jihatdan izchil tadqiq qilib, uning har ikki tildagi qator izomorfik va allomorfik jihatlarini tahlil qilish ham tadqiqot ishi davomida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan qator vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Haase, Fee A. A history of discourse as a Discourse of history: Methods and Applications of Communication Studies, June 25, 2010. SSRN: <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.1630360>;
2. Discourse of history: Methods and Applications of Communication Studies, June 25, 2010. P.- 6 SSRN: <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.1630360>
3. "Discourse". The American Heritage Dictionary of the English Language. 4th Ed. The free Dictionary, 2013. <http://www.thefreedictionary.com/discourse>.
4. "Discourse". Answers Corporation. June 23, 2013. <http://www.answers.com/topic/discourse>
5. "Discourse". Geography dictionary. Answers Corporation. June 23, 2013. <http://www.answers.com/topic/discourse>
6. Greasser A. Introduction to the Handbook of Discourse Processes. Routledge, London, 2003. pp. 156-157 ISBN: 9871410607348 Greasser A. Introduction to the Handbook of Discourse Processes. Routledge, London, 2003. P. 187 ISBN: 9871410607348
7. McArthur T. Concise Oxford Companion to the English Language. Oxford university press, London. 2005. pp.214-215 ISBN-10: 0192806378
8. Raupova L. R. Dialogik diskursdagi polipredikativ birliklarning sotsiopragmatik tavsifi. Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri (PhD) dis. avtoref... Toshkent, 2012.- 57 b;
9. Safarov Sh. Nutq lingvistikasining tekshiruv obyekti nimadan iborat // Nutq lingvistikasi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari, Samarqand, 2006. – b.4
10. The International Encyclopedia of Social Science. Encyclopedia.com. 15 May. 2014. <http://www.encyclopedia.com>
11. Teun A. van Dijk, Discourse and context: Sociocognitive approach. Cambridge Univer. press, London, 2008. p. 116 ISBN-13 978-0-511-42320-8
12. Teun A. van Dijk, Society and discourse: How social contexts influence texts and talks. Cambridge Univer. press, London, 2009. p. 46 ISBN-13 978-0-511-50817-2
13. Хазраткулов А. П. Когнитивно-прагматическая специфика экономического дискурса в коммуникативном пространстве медиа автореф... дис. канд. филол. наук. – Майкоп, 2020. с — 8
14. Zelling S. Harris Discourse analysis. // Linguistic society of America, Vol. 28, No.1, 1952. Pp. 1-30